# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 12-sentabr, № 190 (8533) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
FARMONI

## «O‘ZBEKISTON – 2030» STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA

2023-yil 30-aprelda o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi Yangi O‘zbekistonni barpo etishning konstitutsiyaviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq o‘tkazilgan prezidentlik saylovi yana bir bor jamiyatimizning siyosiy yetukligi, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimiz to‘liq qo‘llab-quvvatlaganidan dalolat bermoqda.

Shu bilan birga, yangilangan konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda mamlakatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini takomillashtirish va amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish talab etilmoqda.

Xalqimizning **erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekiston**ni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida:

1. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**“O‘zbekiston – 2030”** strategiyasida quyidagi **asosiy g‘oyalar** aks ettirilganligi inobatga olinsin:

barqaror iqtisodiy o‘sish orqali **daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan** o‘rin olish;

**aholi talablariga va xalqaro standartlarga** to‘liq javob beradigan **ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya** tizimini tashkil qilish;

aholi uchun **qulay ekologik sharoitlarni** yaratish;

xalq xizmatidagi **adolatli va zamonaviy** davlatni barpo etish;

mamlakatning **suvereniteti va xavfsizligini** kafolatli ta’minlash.

2. Quyidagilar:

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini** amalga oshirish va uning **maqsadli ko‘rsatkichlariga** erishish barcha davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida eng ustuvor vazifa etib belgilansin hamda bu bo‘yicha ularning birinchi rahbarlariga **shaxsiy mas’uliyat** yuklansin;

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish va dolzarb vazifalar bajarilishi ta’minlansin.

3. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi** (keyingi o‘rinlarda – Respublika komissiyasi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Respublika komissiyasi (A.Aripov) zimmasiga:

a) **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining** to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish, shuningdek, uni amalga oshirish bo‘yicha tegishli yillik dasturlarni tayyorlash va ijrosini muvofiqlashtirish;

b) **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi** islohotlar bo‘yicha tadbirlarning aholi tomonidan bildirilgan fikr va tashabbuslar asosida sifatli amalga oshirilishi, belgilangan ko‘rsatkichlarga erishilishini nazorat qilib, natijasi yuzasidan **har yarim yilda** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritilishini ta’minlash;

v) **ikki oy muddatda**:

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining **joylarda amalga oshirilishi natijalari** tanqidiy o‘rganilishini;

aholi o‘rtasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish **natijalari keng muhokama qilinishi, fuqarolarning mazkur masala bo‘yicha takliflari tizimlashtirilgan** holda tahlil etilishini;

o‘tkazilgan o‘rganishlar natijasiga ko‘ra, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qilayotgan tizimli omillarni aniqlash va **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish** doirasida ularning oldini olish bo‘yicha aniq choralar ko‘rilishini ta’minlash vazifalari yuklansin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga “**O‘zbekiston – 2030” strategiyasining hududlar kesimida ijro etilishi yuzasidan** vazirlik va idoralar hududiy bo‘linmalari rahbarlarining **axborotini har chorakda eshitish va tanqidiy muhokama qilib borish** tavsiya etilsin.

**(Davomi 2-betda).**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

## «O‘ZBEKISTON – 2030» STRATEGIYASINI 2023-YILDA SIFATLI VA O‘Z VAQTIDA AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoniga muvofiq, shuningdek, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida:

1. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida** quyidagi **ustuvor yo‘nalishlar** belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin:

har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish;

barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash;

suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;

qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;

“xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish.

2. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish** yo‘nalishi doirasida:

a) **2024-yil 1-yanvardan boshlab**:

davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga oqsil, **vitamin va minerallar bilan boyitilgan sut, yod bilan to‘yintirilgan non mahsulotlari** berilishi yo‘lga qo‘yilsin;

Xorazm viloyatining Qo‘shko‘pir va Xonqa tumanlarida eksperiment tariqasida, barcha boshlang‘ich sinf o‘quvchilari **ta’lim planshetlari bilan** ta’minlansin, kelgusida mazkur tajriba respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich joriy etilsin;

banklarning **nodavlat umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish** uchun milliy valyutada ajratiladigan, qiymati **20 milliard so‘mgacha bo‘lgan kreditlar** bo‘yicha, foiz stavkasining Markaziy bank asosiy stavkasidan oshadigan, lekin uning **1,5 baravaridan ko‘p bo‘lmagan qismini qoplash uchun** Davlat byudjeti hisobidan **kompensatsiya** taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin;

b) **2023/2024-o‘quv yilidan boshlab** umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining kasb-hunar egasi bo‘lish istagidagi 10-sinf o‘quvchilari uchun **tegishli hududlarda talab yuqori bo‘lgan kasb-hunarlarga o‘rgatish kurslari** joriy etilsin.

Bunda, dastlabki bosqichda ushbu tartib **zarur kadrlar salohiyati va moddiy-texnika bazasiga ega** bo‘lgan hamda **Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan belgilangan** umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy etilsin;

v) **2023/2024-o‘quv yilidan boshlab** Prezident maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun **“tayanch maktab” etib** belgilansin.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari “tayanch maktablar” tomonidan **yangi ta’lim dasturlari, dars o‘tishning ilg‘or metodikalari va o‘quvchi bilimini baholashning zamonaviy usullariga** o‘rgatiladi.

3. Belgilansinki, **2024-yil 1-yanvardan boshlab**:

**onkogematologik kasalliklarga chalingan bolalar** uchun Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi hamda Bolalar milliy tibbiyot markazida **gemotopoetik suyak ko‘migi o‘zak hujayralari transplantatsiyasi amaliyoti** joriy etiladi;

**virusli gepatitning “S” turi** bilan kasallangan bemorlarni hamda gemotopoetik suyak ko‘migi **o‘zak hujayralari transplantatsiyasi** muolajasiga muhtoj **onkologik kasalliklarga chalingan bolalarni to‘liq Davlat byudjeti mablag‘lari** hisobidan davolash yo‘lga qo‘yiladi.

4. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

a) **2023-yil 1-oktabrdan boshlab og‘ir hayotiy vaziyatga tushgan** yoki **tushish xavfi yuqori bo‘lgan** har bir oila bo‘yicha alohida **“ijtimoiy xizmat ishi”ni** yuritish tartibi amaliyotga joriy etiladi. Bunda, ushbu oilalarda **sharoitni yaxshilash**, ularga **davolash**, **dori vositalari bilan ta’minlash**, **farzandlarini maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlariga joylashtirish**, **moddiy yordam berish** kabi ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish nazarda tutiladi;

**(Davomi 2-betda).**

**Deputatlar — hududlarda**

## KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR IJROSIDA MAS’ULLIK

*Investitsiyalarni jalb etish, sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi yerlaridan unumli foydalanish, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan samarali kafolatlash mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi sanaladi.*

Keyingi yillarda yurtimizda bu borada salmoqli ishlar qilindi. Natijada o‘n minglab, yuz minglab ishsiz yoshlar, xotin-qizlar bandligini ta’minlashga erishildi. Jinoyatchilikning barvaqt oldini olish hamda aholiga energiya resurslarini yetkazish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini berayotir.

E’tiborlisi, ushbu masalalar davlatimiz rahbarining ham doimiy e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Prezidentimiz shu yil Farg‘ona, Toshkent va Buxoro viloyatlariga tashriflari chog‘ida ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratib, mamlakatimiz taraqqiyotiga bevosita daxldor bo‘lgan muhim masalalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishlari o‘tkazdi. Bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish yuzasidan kelgusidagi ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

Ular ijrosini ta’minlashda vakillik organlari ham faol ishtirok etib, ularning bajarilishi yuzasidan samarali parlament va deputat nazoratini olib bormoqda.

### Mavjud muammolarni hal etish choralari ko‘rildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari A. Haitov boshchiligida bir guruh deputatlar Sirdaryo viloyatida o‘rganishlar olib bormoqda.

Xususan, Guliston shahridagi o‘rganishlar davomida hududiy investitsiya loyihalarining ishga tushirilishi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda eksport prognozlarining bajarilishi tahlil qilindi.

Ishchi guruh a’zolari Guliston shahrida faoliyat yuritayotgan bir qator tadbirkorlik subyektlari, ishlab chiqarish korxonalarida bo‘lib, mavjud muammolarga yechim izlash borasida mutasaddilar ishtirokida muhokamalar o‘tkazdi. Asosiy maqsad Sirdaryoni sanoat, tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligi, ta’lim va tibbiyot sohalarida “ilg‘or innovatsiyalar hududi”ga aylantirishga ko‘maklashishdir.

Shuningdek, Guliston shahrida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha obyektlari va ko‘p kvartirali uy-joy fondini 2023-yilning kuz-qish davrida barqaror ishlashga tayyorlashni ta’minlashga doir tasdiqlangan parametrlar bajarilishi ustidan o‘rganish olib borildi.

Uchrashuvlar davomida ko‘p kvartirali turarjoy fondini mukammal ta’mirlash, hududlardagi talab darajasida bo‘lmagan ko‘p kvartirali uylarning sanitariya-gigiyenik holatlarini yaxshilash, issiqlik ta’minoti, ko‘mir zaxirasini yaratish, ichimlik suvi, elektr tarmoqlari, tabiiy va suyultirilgan gaz obyektlari hamda uskunalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

2

**Ko‘z o‘ngimizdagi o‘zgarishlar**

## BUXORO – YANGI O‘ZBEKISTONNING DUR-U GAVHARI



*Bu qadimiy shahar nomi tilga olinganda beixtiyor ko‘z o‘ngimizda insoniyat tamadduniga benazir hissa qo‘shgan, dunyo ahli tomonidan madaniyat va ma’rifat beshigi sifatida e’tirof etilgan ko‘hna kent gavdalanishi rost. Tib ilmining sultoni Ibn Sino, buyuk alloma Imom Buxoriy, tarixshunoslik zargari Muhammad Narshaxiy, tasavvuf pirlaridan sanalgan Bahouddin Naqshband kabi o‘nlab zakiy olim-u ulamolarga beshik bo‘lgan bu qadimiy yurt ne baxtki, istiqlol yillarida yangilanish, yasharish sari yuz burdi. Yangi O‘zbekistonning dur-u gavhariga aylandi.*

3

**Fikr**

## ICHIMLIK SUVI TA’MINOTI BO‘YICHA ISTIQBOLLI LOYIHALAR

### aholining bu boradagi ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi

*Xalqimizda “Suv keltirgan elda aziz” degan naql bor. Tiriklik manbai bo‘lgan suvni asrab-avaylash, har tomchisidan unumli va tejab foydalanish barchamizning burchimizdir. Zero, sog‘lig‘imiz ham, umrimizning uzoq bo‘lishi ham, eng avvalo, ichimlik suvining sifatiga bog‘liq.*

Shu bois keyingi yillarda mamlakatimizda aholini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta’minlash, oqova suv xizmatlarini yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish, ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv xizmatlari qamrovini oshirish bo‘yicha salmoqli ishlar bajarildi.

Xususan, so‘nggi besh yilda mamlakatimiz suv ta’minoti tizimini yaxshilash uchun qariyb 1 milliard dollar sarmoya kiritildi. 2017 — 2023-yillar mobaynida esa 5 870 ta obyektda qurilish ishlari olib borilib, 31 837,5 km. ichimlik va oqova suv tarmoqlari qurildi va rekonstruksiya qilindi. Bu sa’y-harakatlar natijasida 11,8 mln. aholining ichimlik suvi ta’minoti yaxshilanib, 6,6 mln. kishi esa ilk bor ichimlik suvi bilan ta’minlandi.

Ta’mirtalab tizimlarda vujudga kelayotgan avariyalar natijasidagi yo‘qotishlarni kamaytirish maqsadida 2021 — 2022-yillarda umumiy qiymati 67,4 mlrd. so‘m-ga teng bo‘lgan jami 215 ta yangi maxsus texnika vositasi xarid qilindi. Mavjud 476 ta texnika esa joriy ta’mirlandi.

3

**Adabiyotimizning ulkan vakillaridan biri, atoqli adabiyotshunos olim, mohir adib va tarjimon, jonkuyar publitsist Ibrohim G‘afurov timsolida men butun ongli hayotini milliy ma’naviyatimiz ravnaqiga bag‘ishlab kelayotgan fidoyi shaxs, halol va kamtarin insonni ko‘raman.**

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

## MA’NAVIYAT UMMONIDAN SAKKIZTA NOYOB MARVARID

*Yaqinda nishonlangan Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi bayramiga yangi va rang-barang, moddiy, ma’naviy, ma’rifiy tuhfalar juda ko‘p bo‘ldi. O‘zbekiston Qahramoni, taniqli olim va adib, adabiyotshunos, mohir tarjimon Ibrohim G‘afurovning “Asarlar/Adabiyot dunyosi: sakkiz jildlik to‘plami” shular jumlasidan.*

**Mutolaa**

Taniqli adabiyotshunos naqd yarim asrdan beri o‘zbek adabiyoti jarayonlarini teran tahlil, tadqiq va talqin etib keladi. Badiiyatda haqqoniylik hamda insoniylik, adolat va milliy o‘ziga xoslik, ilmiylik hamda xolislik prinsiplarining namoyon bo‘lishi holatlarini kuzatadi.

Shu ma’noda, ustozning ma’naviyat ummonidan noyob marvaridlardek ushbu sakkizta kitobi qo‘liga yetib borgan har bir o‘zbek kitobxoni ko‘nglidan, dastavval, Yurtboshimizning quyidagi e’tirofi kechgan bo‘lsa ajab emas: **“Ibrohim G‘afurov o‘zining beqiyos ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan el-yurtimizga juda katta xizmat qilgan ulug‘ zamondoshimizdir. Ishonamanki, u kishi bundan keyin ham o‘zining yangi-yangi, go‘zal va barkamol asarlari bilan barchamizni, butun xalqimizni xushnud etadi”.**

### Behalovat so‘z zargari

Ustoz Ibrohim G‘afurov haqida so‘z borganda, Mustaqilligimizning 30 yilligi munosabati bilan faxriy unvonlar, orden va medallarga sazovor bo‘lgan bir guruh yurtdoshlarimizga Ko‘ksaroyda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ishtirokida ushbu mukofotlarni topshirish marosimi bo‘lib o‘tganini maroq va iftixor bilan eslayman.

Davlatimiz rahbari o‘shanda taniqli adabiyotshunos olim va mohir tarjimon, mashhur adib va mehribon murabbiy Ibrohim G‘afurovga “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni guvohnomasi va “Oltin yulduz” medalini shaxsan taqdim etar ekan, jumladan, shunday dedi:

— Men Erkin Vohidov va Abdulla Oripov bilan do‘st edim. Abdulla Oripov bilan Zomin maktabini tashkil qilgan edik. Erkin akaning bir gaplari bo‘lar edi: “Agar o‘zbek tilining buyukligini bilishni xohlasang, Ibrohimjondan so‘rash kerak”, derdi. Ibrohim aka milliy adabiyotimizning ana shunday zabardast namoyandasi.

Bu yuksak e’tirof Ibrohim aka asarlari sakkiz jildligining birinchi jildi ilk sahifalarida ham aks etgan. Kitobga “Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Qahramoni Ibrohim G‘afurov haqidagi fikrlari” nomli kirish so‘zi berilganining o‘ziyoq ushbu yangi nashr mohiyati va ahamiyati yangi O‘zbekiston g‘oyasiga mutanosib ravishda nechog‘li salmoqdor ekanligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

4

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

# «O‘ZBEKISTON – 2030» STRATEGIYASI TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

5. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** va uni bajarish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar **ijrosi**, tegishli **maqsadli ko‘rsatkichlarga** erishilishi va ular doirasida **normativ-huquqiy hujjatlar** o‘z vaqtida **ishlab chiqilishi** ustidan **nazoratni quyidagi tartibda** amalga oshirish belgilansin:

a) Adliya vazirligi Hisob palatasi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va “Yuksalish” umummilliy harakati bilan birgalikda **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** va uni tegishli yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar bajarilishini tizimli monitoring qilib, uning natijalarini **har oyda** Respublika komissiyasiga kiritib boradi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari o‘z hududlarida **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** ijrosining tegishli yillarda hududlar kesimida amalga oshirilishi bo‘yicha **har chorakda** nazorat tadbirlarini o‘tkazadi;

v) Vazirlar Mahkamasi **har oyda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** amalga oshirilishini **Bosh vazir o‘rinbosarlari huzurida** tanqidiy ko‘rib chiqishni ta’minlaydi, **har chorakda Hukumat majlislarida muhokama qilib boradi** hamda o‘z vaqtida va to‘liq bajarilmagan tadbirlar yuzasidan **Hukumat a’zolariga, shu jumladan, vazirlarga nisbatan tegishli choralar** ko‘radi hamda **har yarim yilda** Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga “**O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** amalga oshirilishi yuzasidan **hisobot taqdim qiladi.**

6. Vazirlar Mahkamasi (A.Aripov) **bir oy muddatda:**

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini **2023-2024-yillarda hududlar kesimida amalga oshirish chora-tadbirlari** bo‘yicha Hukumat qarorlari qabul qilinishini;

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi yo‘nalish va maqsadlardan kelib chiqqan holda **Bosh vazir o‘rinbosarlariga biriktirilgan tarmoq va sohalar kesimida aniq vazifalar** belgilanishini ta’minlasin.

7. Adliya vazirligi mas’ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** doirasida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining **sifatli va o‘z vaqtida** ishlab chiqilishi, kelishilishi, jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishiga amaliy yordam ko‘rsatib borsin.

8. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi — xalq strategiyasi”** shiori ostida belgilangan islohotlarning izchil, sifatli va o‘z vaqtida bajarilishi yuzasidan samarali jamoatchilik nazoratini o‘rnatish maqsadida **“Taraqqiyot strategiyasi”** markazi:

Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda **ikki hafta muddatda“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** ijrosining ta’minlanish darajasi, unda belgilangan islohotlarning sifatli amalga oshirilishini **aholi tomonidan har bir maqsad va undagi ko‘rsatkichlar kesimida baholash,** ular yuzasidan **o‘z fikrlarini qoldirish** va tashabbuslar bildirish **imkoniyatini yaratuvchi onlayn portalni** ishga tushirsin;

**har oyda** baholash natijalari va aholidan kelib tushadigan fikr-mulohazalarni umumlashtirib, Respublika komissiyasiga taqdim etib borsin;

2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (J.Qo‘chqorov) bilan birgalikda **har yili “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari”ga muvofiq** amalga oshirilishi bo‘yicha tahlilni **jamoatchilik bilan birgalikda** o‘tkazish va natijalarini e’lon qilib borish tizimini yo‘lga qo‘ysin;

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** va uni tegishli yillarda amalga oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar bajarilishi yakunlariga bag‘ishlangan **axborot-tahliliy sharhlarni tayyorlash, ularni xorijiy tillarda e’lon qilish va keng tarqatishni** ta’minlasin.

9. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston Milliy axborot agentligi ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda muntazam ravishda:

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan **maqsad va vazifalarning ommaviy axborot vositalarida**, shu jumladan, **Internet jahon axborot tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini** hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka yetkazilishini;

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi** doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning ijrosi va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish holati yuzasidan **aholiga xolis va to‘liq ma’lumot** yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib **vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari** belgilansin.

Mazkur Farmon ijrosini **har yarim yilda** muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish **Respublika komissiyasi** zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida **har yil yakuni bo‘yicha** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot kiritib borilsin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 11-sentabr

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

# «O‘ZBEKISTON – 2030» STRATEGIYASINI 2023-YILDA SIFATLI VA O‘Z VAQTIDA AMALGA OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

b) **2024-yil 1-yanvardan boshlab:**

Toshkent shahrining tibbiyot muassasalarida davlat tomonidan **kafolatlangan bepul tibbiy xizmatlar hajmi** va **dori vositalari ro‘yxatini amaliyotga kiritishni** nazarda tutuvchi **davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari** bosqichma-bosqich joriy etiladi;

nogironligi bo‘lgan shaxslarni **protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiya** hamda **dori vositalari bilan ta’minlash** ishlari **“vaucher” tizimi** asosida bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Bunda, nogironligi bo‘lgan shaxslarga **tovar va xizmatlarni o‘zlari tanlagan yetkazib beruvchidan xarid qilish** imkoniyati yaratiladi va ularning xarajatlari **Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan** qoplab beriladi.

5. Xotin-qizlarning **ijtimoiy faolligini** oshirish, ularga **o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishi** uchun qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish maqsadida **2024-yil 1-yanvardan boshlab** og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarni **qayta kasbga tayyorlash xarajatlarini** davlat tomonidan qoplab berish tartibi joriy etilsin.

6. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish** yo‘nalishi bo‘yicha**:**

**2023-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi** 1-ilovaga muvofiq;

**2023-2024-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar** 1a-ilovaga muvofiq;

**2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati** 1b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi**ning **barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash** yo‘nalishi doirasida:

a) **2023-yil 1-oktabrdan boshlab** tadbirkorlik subyektlariga miqdori **10 million so‘m**dan yuqori bo‘lgan soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun, agar tadbirkorlik subyekti huquqbuzarlikni inkor etsa, **moliyaviy sanksiyalarni faqatgina sud tartibida qo‘llash** amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin;

b) **2024-yil 1-yanvardan** boshlab:

qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga hosilni sug‘urtalashda **sug‘urta mukofotining 50 foizi miqdorida subsidiya berish** tartibi joriy etilsin;

**“Izlanish va rivojlanish”** (R&D) markazlari uchun ular tashkil etilgan kundan boshlab **3 yil muddatga** mol-mulk solig‘i va yer solig‘i bo‘yicha hisoblangan summa miqdorining **1 foizini** to‘lash, ularning xodimlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini **1 foiz** miqdorida hisoblash tartibi joriy etilsin;

davlat ulushi **50 foizdan** yuqori bo‘lgan tashkilotlar tomonidan har yili amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari qiymatining kamida **5 foizini obligatsiyalar chiqarish orqali moliyalashtirish** tartibi joriy etilsin.

8. **2024-yil 1-yanvardan boshlab** jismoniy va yuridik shaxslarga qo‘shilgan qiymat solig‘ini **to‘liq qaytarib berish tizimi** quyidagilar hisobidan kengaytirilsin:

**xorijiy turistlarga – O‘zbekiston xalqaro aeroportlarida** O‘zbekiston hududida sotib olingan va “Tax free” tizimi bo‘yicha rasmiylashtirilgan mahsulotlar uchun;

**tur-operatorlarga** – xorijiy kontragentlar bilan shartnomalar doirasida ko‘rsatilgan eksport xizmatlari uchun.

9. Iqtisodiyot va moliya vazirligining **quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflari** ma’qullansin:

**O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg‘armasi**ni tashkil etish va uning asosiy vazifalari sifatida **energetika, kommunal xo‘jalik, transport, ekologiya, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa ustuvor sohalarda** davlat-xususiy sheriklik loyihalari hujjatlarini **sifatli ishlab chiqishni** belgilash;

davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan kelib chiquvchi davlatning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va shartli majburiyatlarini **monitoring qilish, boshqarish va tartibga solish tizimini** amaliyotga tatbiq etish;

Davlat byudjeti loyihasini shakllantirish va ijrosi bo‘yicha hisobotlarda **byudjet xarajatlarining barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga muvofiqligi va iqlim o‘zgarishiga ta’sirini ko‘rsatib borish** (markirovkalash) mexanizmlarini joriy etish.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi (J.Qo‘chqorov):

a) **ikki hafta** muddatda:

xalqaro moliya institutlarini jalb qilgan holda **O‘zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg‘armasi faoliyatini samarali tashkil etish** bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasi;

davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan **davlatning majburiyatlarini boshqarish va tartibga solish mexanizmlarini belgilovchi** Hukumat qarori loyihasi;

b) **2024-yil 1-yanvarga qadar** Davlat byudjeti xarajatlarining barqaror rivojlanish **milliy maqsadlariga muvofiqligi va iqlim o‘zgarishiga ta’sirini ko‘rsatib borish** (markirovkalash) **mexanizmlarini** joriy etish bo‘yicha Hukumat qarori loyihasi kiritilishini ta’minlasin.

10. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash** yo‘nalishi bo‘yicha:

**2023-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi** 2-ilovaga muvofiq;

**2023-2024-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar** 2a-ilovaga muvofiq;

**2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati** 2b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish** yo‘nalishi doirasida:

a) **2023-yil 1-noyabrdan** boshlab:

ijobiy ekologik ekspertiza xulosasini olmagan obyektlarga nisbatan **moliyalashtirish, kreditlash va boshqa moliya operatsiyalarini to‘xtatib turish** mexanizmi joriy etilsin;

ekologik huquqbuzarlik sodir etganlarga nisbatan zararni qoplash bilan bir qatorda, zarar yetkazilgan **tabiat obyektini tiklash** va uning **muayyan muddat davomida muhofaza qilinishini ta’minlash majburiyati** yuklansin;

b) **suv resurslarini** muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish maqsadida **2024-yil 1-yanvardan** boshlab:

respublikaning uzoq muddatli **suv balansi prognozi**ni yuritish, shu jumladan, uni har yili yangilash va suv resurslarini tejash dasturlarini qabul qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatining, keyinchalik esa, **bosqichma-bosqich respublikaning barcha hududlarining** qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilariga **suvni tejaydigan texnologiyalarni** joriy qilish uchun kreditlar **10 foiz** stavkada (foiz stavkalarini subsidiyalash hisobiga) ajratilishi ta’minlansin;

v) **atmosferaga zararli** tashlanmalar hajmini kamaytirish maqsadida xalqaro **“karbon market”** tizimi doirasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar tomonidan barpo etiladigan **yashil maydonlarni tashkil qilish xarajatlarini qisman jalb qilingan** grant mablag‘lari hisobidan kompensatsiya **qilish** amaliyoti yo‘lga **qo‘yilsin**.

Bunda, barpo etilgan **yashil maydon**lar (yaylovlarni ozuqabop ekinlar bilan, qishloq xo‘jaligi yerlarini daraxtlar bilan qoplash) bo‘yicha kompensatsiyalar **issiqxona gazlarini zararsizlantirish darajasiga mutanosib** ravishda ajratiladi.

12. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish** yo‘nalishi bo‘yicha:

**2023-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi** 3-ilovaga muvofiq;

**2023-2024-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar** 3a-ilovaga muvofiq;

**2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati** 3b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish** yo‘nalishi doirasida:

a) davlat xizmatlarini ko‘rsatishda **aholiga yanada qulayliklar yaratish** va **ortiqcha sansalorliklarga barham berish** maqsadida:

**2024-yil 1-yanvardan** boshlab aholiga **yo‘l harakati xavfsizligi sohasida davlat xizmatlarini** ko‘rsatishda, shu jumladan, avtomototransport vositalarini **davlat ro‘yxatidan o‘tkazishda** avtomototransport vositasining **oldi-sotdi shartnomalari** va **boshqa notarial tasdiqlangan bitimlarni** “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan olish amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin va ariza beruvchilardan **mazkur hujjatlarni talab qilish taqiqlansin**;

**2024-yil 1-martdan boshlab notarial idoraga kelmasdan**, shu jumladan, **chet eldan turib mol-mulkdan foydalanish** bilan bog‘liq bitimlarni (mulk huquqini boshqa shaxsga o‘tkazishdan tashqari) **elektron raqamli imzodan foydalanib**, **videokonferensaloqa orqali rasmiylashtirish** tartibi yo‘lga qo‘yilsin;

b) **2024-yil 1-yanvardan boshlab** bosqichma-bosqich barcha shahar va tumanlarda **“Mahalla byudjeti”** tizimi joriy etilsin.

Bunda, tuman va shahar byudjetlariga tushadigan soliq tushumlarining bir qismi mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish jamg‘armalariga yo‘naltirilishi belgilansin;

v) **tashabbusli byudjet amaliyotini** va mahallalarning **moliyaviy mustaqilligini yanada kengaytirish** maqsadida **2024-yilda** jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish uchun Davlat byudjetidan **10 trillion so‘m**, shundan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari uchun kamida **4 trillion so‘m** yo‘naltirilsin;

g) **2024-yil yakuniga qadar** qonunda belgilangan asoslarda tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish masalasini alohida sudyalar – **tergov sudyalari** tomonidan ko‘rib chiqish tartibi joriy etilsin;

d) tadbirkorlik sohasida javobgarlikni yanada liberallashtirish maqsadida **2024-yil 1-yanvardan** boshlab:

birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxsni, agar u **sud maslahatxonaga kirguniga qadar** soliqlar va yig‘imlar, shu jumladan, penyalar va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida **davlatga yetkazilgan zararning o‘rnini to‘liq qoplasa, javobgarlikdan ozod qilish**;

tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo‘zg‘atilgan har bir jinoyat ishi bo‘yicha tergov hamda sud jarayonida tegishli mansabdor shaxs **jinoyat ishi materiallarini ish yurituviga qabul qilgan vaqtdan boshlab** tadbirkorni himoya qilishga Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi, shuningdek, tadbirkorlik subyekti a’zo hisoblangan boshqa tashkilotni **jamoat himoyachisi sifatida jalb etishi** (xabar qilish) tartibi joriy etilsin;

ye) **2024-yil 1-yanvardan boshlab** aholi punktlarida barcha yangi qurilayotgan ikki va undan ortiq polosali avtomobil yo‘llarida piyodalar o‘tish yo‘laklarini svetoforlar bilan to‘liq jihozlash majburiy etib belgilansin.

14. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish** yo‘nalishi bo‘yicha:

**2023-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi** 4-ilovaga muvofiq;

**2023-2024-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar** 4a-ilovaga muvofiq;

**2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro‘yxati** 4b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

15. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatini izchil davom ettirish** yo‘nalishi doirasida Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda joriy yilning noyabr oyida Toshkent shahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining uchrashuvi yuqori saviyada o‘tkazilishini ta’minlasin.

16. **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish** yo‘nalishi bo‘yicha:

**2023-yilga mo‘ljallangan amaliy tadbirlar rejasi** 5-ilovaga muvofiq;

**2023-2024-yillarga mo‘ljallangan maqsadli ko‘rsatkichlar** 5a-ilovaga muvofiq;

**2023-yilda ishlabchiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlarloyihalari ro‘yxati** 5b-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

17. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A.Xodjayev), O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi (A.Xadjayev) va O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (A.Ko‘chimov) ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda **muntazam ravishda**:

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish natijalarining** ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘ida va ijtimoiy tarmoqlarda keng sharhlab borilishini hamda uning mazmun-mohiyati jamoatchilikka tushuntirilishini;

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida** amalga oshirilayotgan **barcha tadbirlarning ijrosi va natijalari** to‘g‘risidagi xolis va to‘liq ma’lumot aholiga tezlik bilan yetkazilishini ta’minlasin.

18. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib **vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari** belgilansin.

Qaror ijrosini muntazam ravishda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha Respublika komissiyasi** zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh.MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 11-sentabr

# KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR IJROSIDA MAS’ULLIK

1

Bugungi kunda Guliston shahrida ko‘p qavatli 398 ta uy mavjud. Uchrashuvlar davomida deputatlar dasturga asosan mahallalardagi ko‘p qavatli 7 ta uyning fasad qismini bazalt qoplama bilan qoplash jarayonini “Namuna” mahalla fuqarolar yig‘ini misolida o‘rgandi.

Ochiq muloqotlar chog‘ida ko‘p qavatli xonadonlarda kuz-qish mavsumida gaz, elektr ta’minotidagi uzilishlar bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish bo‘yicha ishlarni tez va sifatli bajarish yuzasidan mutasaddilarga tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Qonunchilik palatasi deputatlarining navbatdagi manzili — Mirzaobod tumani bo‘ldi. Bu yerda ular asosiy e’tiborni sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik borasida amalga oshirilayotgan ishlarga qaratdi.

Dastlab deputatlar tumanning “Navro‘z”, “Bahoriston” mahalla fuqarolar yig‘inlarida joylashgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini o‘rgandi. Ishchi-xodimlar bilan suhbatda yurtimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, erkin va samarali faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur sharoitlar yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar haqida keng ma’lumotlar berildi.

Shuningdek, fermer va dehqon xo‘jaliklari, fuqarolar xonadonlarida “mahalladagi beshlik”, sektor rahbarlari, fermerlar, aholi va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuv va muloqotlar bo‘lib o‘tdi. Fuqarolarga mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati yetkazildi.

Odamlarni qiynab kelayotgan dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammo va kamchiliklar atroflicha o‘rganilib, aniqlangan masalalarni hal etish choralari ko‘rildi.

Uchrashuvlar chog‘ida ijtimoiy soha obyektlarining kuz-qish mavsumiga tayyorligi, ichimlik suvi ta’minoti, muqobil energiya manbalarining joriy etilgani va boshqa masalalar ham deputatlar diqqat markazida bo‘ldi.

### Bandlikni ta’minlash — deputatlar nazoratida

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o‘rinbosari Z. Ibragimova boshchiligidagi bir guruh deputatlarning Xorazm viloyatidagi o‘rganishlari ham nihoyatda samarali kechdi.

Dastlab deputatlar Urganch shahrida bo‘lib, yoshlar bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilgan ishlar holati bilan tanishdilar.

Hududda aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilayotir. Jumladan, Beshmergan mahallasida yashovchi D. Sardorovga avtomashina yuvish jihozlari, D. Sultonovga avtotransport vositalarini tuzatish anjomlari “yoshlar daftari” jamg‘armasidan subsidiya asosida olib berilgan.

Bugungi kunda yoshlar o‘zini o‘zi band qilish orqali doimiy daromadga ega bo‘lmoqda. Muloqotlar chog‘ida yigit-qizlar yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni qo‘llab-quvvatlab, davlatimiz tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan mamnun ekanliklarini bildirdi.

Deputatlar Urganch shahrida joriy yilning o‘tgan davri mobaynida yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi bandligini ta’minlash borasida amalga oshirilgan va hududdagi monomarkazda tashkil qilingan ishlar bilan ham yaqindan tanishdilar.

Ayni chog‘da “Ashxobod” mahalla fuqarolar yig‘inida huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta’minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida olib borilayotgan ishlarni o‘rgandilar.

Ma’lum bo‘lishicha, sodir etilayotgan har bir jinoyat mutasaddi idoralar rahbarlari ishtirokida mahallada keng muhokama qilinmoqda va bunday noxush voqealarning oldini olish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilyapti.

Uchrashuvlar davomida deputatlar tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda “temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarga yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan ham tanishdi.

Qonunchilik palatasi deputatlarining navbatdagi manzili — Urganch shahrining Xonqa ko‘chasida joylashgan “Beruniy Academy Khorezm” o‘quv markazi bo‘ldi.

Ishchi guruh a’zolari bu yerda markaz faoliyati bilan tanishib, o‘qituvchi va tinglovchilar bilan yaqindan muloqot qildilar. Mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar, uning mohiyati va ahamiyati haqida atroflicha ma’lumotlar berildi.

### Uchrashuvlar chog‘ida zarur ko‘rsatmalar berilmoqda

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari O‘rol O‘rozboyev, Zulayho Akramova Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalarning hududlarda bajarilishi ustidan jamoatchilik va deputatlik nazoratini amalga oshirish maqsadida Jizzax viloyatining Do‘stlik tumanida bo‘lishdi.

Deputatlardan iborat ishchi guruh a’zolarining dastlabki manzili — Do‘stlik tumanidagi Bog‘zor mahallasida joylashgan “Do‘stlik baraka chevarlari” MCHJ bo‘ldi. Turli xildagi bolalar kiyimlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan ushbu tikuvchilik fabrikasida 200 nafar xotin-qiz ish bilan ta’minlangan.

Tadbirkor bilan bo‘lib o‘tgan suhbatda korxonada xodimlar uchun barcha qulaylik yaratilgani, ayni vaqtda 60 ta bo‘sh ish o‘rni mavjudligi, bundan tashqari, yana 100 ga yaqin yangi ish o‘rinlari yaratish rejasi borligi aytib o‘tildi. O‘rganishlar chog‘ida deputatlar ishchilar bilan suhbatlashib, ularni o‘ylantirayotgan masalalar bilan qiziqdi va mutasaddilarga zarur ko‘rsatmalar berildi.

Shundan so‘ng ishchi guruh a’zolari chorvachilikka ixtisoslashtirilgan “Mirishkor” va “Beshbuloq” fermer xo‘jaliklarida bo‘lib, ularning faoliyati bilan ham yaqindan tanishdilar.

Ishchi guruhi a’zolarining o‘rganishlari davom etmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

# BUXORO – YANGI O‘ZBEKISTONNING DUR-U GAVHARI

1

## Har tomchisi zarga teng

Keyingi yillarda viloyatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli bunyodkorlik, obodonchilik ishlari, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, turizm sohalarida hayotga tatbiq etilayotgan yirik loyihalar davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” g‘oyasining amaldagi ifodasi bo‘lyapti. Bu o‘zgarish va yangilanishlar eng chekka qishloqlarda yashovchi yurtdoshlarimizning hayotiga ham yangicha mazmun, o‘zgacha ruh olib kirmoqda.

— Vobkent tumanidagi Kumushkent qishlog‘idanman, — deydi Yorqin Amonov. — Kollejda o‘qiganman. Ayni damda “BUKHARA GOLD GRANIT” mas’uliyati cheklangan jamiyatida mehnat qilyapman. Shunday zamonaviy korxonaning ish boshlagani menga o‘xshagan yoshlar uchun ayni muddao bo‘ldi. Durustgina maosh olyapman. Ota-onam ham xursand. Korxonamizda olisdan kelib ishlayotgan ishchilar uchun zamonaviy yotoqxona ham barpo etilgan.

Yorqinning so‘zlari sabab korxona faoliyatiga bir qur nazar tashladik. Bu yerda tabiiy pardozbop toshlar qayta ishlanar ekan.

— Viloyatimizda yuzdan ziyod noruda foydali qazilma konlari aniqlangan bo‘lib, shu kunga qadar ularning 81 foizi o‘zlashtirilgan, — deydi “BUKHARA GOLD GRANIT” MCHJ ish boshqaruvchisi Jamshid Jamilov. — Biz mahalliylashtirish dasturi doirasida mazkur yer osti boyliklaridan unumli foydalanish, qurilishbop materiallar ishlab chiqarishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Pirovardida Peshku tumanidagi marmar va granit konlarini o‘zlashtirish orqali zamonaviy pardozbop qoplama toshlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan korxona barpo etdik. Loyihamizni moliyaviy muassasa qo‘llab-quvvatladi. 1,5 million dollar hajmidagi xorijiy kredit liniyasi hisobiga Turkiyadan ilg‘or texnologik uskunani keltirib o‘rnatdik.

Ushbu liniyalar zamonaviyligi bilan e’tiborimizni tortdi. Ular chiqitsiz texnologiya asosida ishlash imkonini bermoqda. Energiya samaradorligiga erishilyapti. Ish jarayonida atrof-muhitga chiqib ketish ehtimoli katta bo‘lgan 8 tonna miqdoridagi zararli gaz yo‘liga to‘siq bo‘layotir.

Gap shundaki, oqova suv maxsus filtrlar vositasida tozalanadi. Natijada voha uchun tomchisi zarga teng sanalayotgan suv tejalyapti. Tozalangan obihayotdan ajratib olingan toshli qum esa yo‘l qurilishida ishlatilmoqda.

### Hayotiy g‘oya va tashabbuslar

— Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida yangi davr uchun yangi g‘oya va tashabbuslar, yangi natijalar kerakligi alohida ta’kidlangan edi, — deydi Buxoro shahrida yashovchi mehnat faxriysi, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi Behbud Jumayev. — Bugun qay bir soha vakili bilan suhbatlashmang, yangidan-yangi tashabbuslar haqida so‘z ochadi.

Mana, yaqinda “G‘ijduvon” erkin iqtisodiy zonasining Kogondagi hududida mahalliy tadbirkorlar tashabbusi bilan akril kalava ip ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan yirik korxona ishga tushirildi. Ataylab qiziqib ko‘rdim: loyihaning dastlabki bosqichidayoq 600 nafar yigit-qiz ishli bo‘libdi. Nafaqat viloyatimiz, balki Markaziy Osiyoda noyob sanalgan bu biznes-loyiha sharofati bilan byudjetga yiliga 4,5 milliard so‘m miqdorida qo‘shimcha tushum tushar ekan. Korxonaning qush uchsa qanoti kuyadigan biyday sahro bag‘rida barpo etilganini aytmaysizmi?!

Shu birgina misol ham tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, odamlarni o‘z hayotlaridan rozi qilish yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy yo‘nalishiga aylanganini ko‘rsatadi.

Darhaqiqat, bir paytlar agrar viloyatga aylanib qolgan Buxoro bugungi kunda sanoat jadal ravnaq topayotgan voha sifatida tilga olinyapti. Chunonchi, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yilda 27,2 trillion so‘mni yoki o‘sish sur’ati 106,2 foizni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yil yakuni bilan bu ko‘rsatkich 36,2 trillion so‘mga, o‘sish sur’ati esa 113,2 foizga yetishi kutilmoqda.






### Vatanim rivojiga hissa qo‘shishni xohlayman!

Diqqatga molik dalil: davlatimiz tomonidan sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, qolaversa, ustozlarning fidoyiligi tufayli bu yil 300 nafardan ziyod buxorolik o‘quvchilar muddatidan avval xorij hamda mamlakatimizning nufuzli oliy o‘quv yurtlari talabasi bo‘ldi. Ana shunday iqtidorli yoshlardan biri G‘ijduvon tumanidagi 8-umumta’lim maktabi o‘quvchisi Maftuna Mahmudovadir.

U viloyat o‘quvchilari orasida birinchilardan bo‘lib yaqinda “B2” darajadagi xalqaro DELF sertifikatini qo‘lga kiritdi. Aytish joizki, fransuz tilini bilish darajasini belgilovchi xalqaro DELF imtihoni Fransiya Ta’lim vazirligining Xalqaro tadqiqotlar pedagogik markazi tomonidan o‘tkaziladi. Yosh hamyurtimiz shu sinovda o‘z bilimini, qat’iyatini namoyish etib, xorijning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida tahsil olish huquqiga ega bo‘ldi.

— Prezidentimiz Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqida biz, yoshlarga qarata murojaat etarkan, “El-yurt koriga avvalo kim yaraydi? Albatta, sizlar! Yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessansni kim barpo etadi? Albatta, sizlar!” degan so‘zlari yurak-yuragimdan joy oldi, — deydi Maftuna. — Kelgusida yetuk mutaxassis bo‘lib yetishish, Vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shish maqsadini o‘z oldimga qo‘ydim.

E’tiborlisi, Buxoro viloyatida ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha yuksak marralar belgilangan. Jumladan, keyingi besh yillikda 1594 ta maktabgacha ta’lim tashkilotini tashkil etish hisobiga 3 — 6 yoshgacha bo‘lgan farzandlarimiz maktabgacha ta’lim bilan to‘liq qamrab olinadi. 37 ta yangi maktab quriladi, 130 tasi rekonstruksiya qilinadi, 102 tasi esa mukammal ta’mirlanadi. Har bir tumanda kamida bittadan zamonaviy xususiy maktab ochish uchun sharoitlar yaratiladi.

— Buxoro xalq amaliy san’ati, turizm, tibbiyot, ijtimoiy himoya, bandlik kabi yo‘nalishlarda ham ulkan salohiyatga ega. Mazkur salohiyatni yil sayin sayqal toptirib, uni dunyoga tanitayotgan davlatimiz rahbaridan minnatdormiz, — deydi zardo‘zlik maktabini yaratgan taniqli hunarmand, “Shuhrat” medali sohibi Baxshulla Jumayev. — Hunar ortidan dunyoning o‘nlab mamlakatlarida bo‘ldim. Lekin shunga ishonch hosil qildimki, O‘zbekistonday jannatmonand yurt dunyoda yo‘q. Tinch va osoyishta zaminda yashash, orzular ro‘yobini ko‘rish, o‘z hayotingdan rozi bo‘lib yashashga nima yetsin!

Yurakdan aytilgan bu so‘zlarga esa ortiqcha izohning hojati yo‘q.

**Istam IBROHIMOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# ICHIMLIK SUVI TA’MINOTI BO‘YICHA ISTIQBOLLI LOYIHALAR

## aholining bu boradagi ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi

1

Ayniqsa, “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari doirasida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash maqsadida o‘tgan qisqa davrda respublikamizning barcha hududida suv quvurlari tortilib, aholini ko‘p yillar o‘ylantirib kelgan masalalar ijobiy hal etildi. Natijada kelajakka katta umid va ishonch bilan qarab, hamisha sabr-matonat bilan yashagan fuqarolar o‘z orzusiga erishdi. Mamlakatda bo‘layotgan o‘zgarishlar, yangilanishlarni kundalik hayotida sezdi, his etdi.

2030-yilga borib aholining markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini 90 foizga yetkazish bo‘yicha qator ishlar olib borilayotir. Bu borada 2023 — 2030-yillarda respublika bo‘yicha qariyb 50 ming kilometrdan ziyod ichimlik suvi tarmoqlari, 2 ming dona inshootning qurilishi va rekonstruksiyasi, shubhasiz, aholi hamda iqtisodiyot tarmoqlarining xavfsiz va sifatli suv resurslariga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga xizmat qiladi.

Aholini uzluksiz ravishda sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlash maqsadida yirik shaharlarda Davlat byudjeti va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan 15 ga yaqin loyihalar amalga oshirilishi natijasida esa qariyb 6,7 mln. aholining ichimlik suvi ta’minoti yaxshilanadi.

Mamlakatning olis hududlarida joylashgan va markazlashgan suv ta’minotiga ega bo‘lmagan aholi punktlariga ichimlik suvi hududiy suv ta’minoti tashkilotlariga tegishli 220 ta, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli 1701 ta maxsus suv tashish texnikasi yordamida yetkazib berilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Aytish joizki, muqobil manbalardan foydalanuvchi hamda ichimlik suvi maxsus suv tashish texnikalari yordamida tashib beriluvchi aholining ulushi 25,6 foizni tashkil etadi. Prezidentimizning 2022-yil 18-oktabrdagi tegishli qaroriga muvofiq, Toshkent shahrining ichimlik suvi ta’minoti va oqova suv tizimlarini yaxshilash maqsadida “SUYEZ International SAS” kompaniyasi (Fransiya) ishtirokida umumiy qiymati 218,8 mln. yevroga teng loyiha ro‘yobga chiqarilmoqda.

Ushbu loyiha doirasida shaharda “aqlli” boshqaruv tizimi joriy etilishi ko‘zda tutilgan. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizning olis hududlarida istiqomat qiladigan va markazlashgan ichimlik suvi bilan ta’minlanmagan ming-minglab fuqarolarning toza ichimlik suvi bilan ta’minlanishiga, ularning ko‘p yillik orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarishga, eng muhimi, aholi salomatligini saqlashga zamin yaratadi.

Sir emaski, har bir soha rivoji malakali kadrlarga bog‘liq. Shu sababli, mamlakatimizda suv ta’minoti sohasida ham malakali xodimlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, hududlarda jami 248 ta dispetcherlik punkti hamda 527 ta avariya tiklash brigadasi faoliyati takomillashtirilib, 2 ming 219 nafar usta va chilangar xodimlarning malakalari oshirildi.

Muxtasar aytganda, aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash, birinchi navbatda, mamlakatimiz aholisi salomatligi garovidir. Bu borada davlat tomonidan suv ta’minotini yaxshilash, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha bajarilayotgan ishlar aholini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasi va sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kamol JUMANIYOZOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

## Qulaylik

# KARMANADA NAVBATDAGI BOG‘CHA OCHILDI

*Navoiy viloyatining Karmana tumanida bugungi kunda 153 ta maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyat ko‘rsatadi, bu esa hududdagi bolalarning 78,8 foizi bog‘chaga qamrab olingan, degani. Ushbu statistika 2017-yil bilan solishtirilsa, ikki baravar ko‘pdir.*

Xususan, tumanning Ayronchi mahallasida so‘nggi uch yilda ikkita davlat va to‘rtta xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Shulardan biri 20-DMTT investitsiya dasturi asosida rekonstruksiya qilinib, bunyodkorlik ishlariga jami 2 mlrd. 915 mln. so‘m sarflandi.

— Muassasamiz ilgari 60 nafar bola o‘rniga mo‘ljallangan bo‘lib, texnik va ma’naviy jihatdan bugungi kun talablariga mutlaqo javob bermasdi, — deydi tashkilot mudirasi Kamola Rahmonova. — Rekonstruksiya tufayli o‘rinlar soni 120 taga yetkazilib, mahallamiz bolalarining maktabgacha ta’lim tashkilotiga qamrovi 100 foizga yetkazildi.

Aytish joizki, ushbu muassasa ta’lim-tarbiyada ota-onalarning yaqin hamkoriga aylandi.

**Temur ESHBOYEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# RAG‘BAT — YUKSAK MARRALARGA QANOT

*Samarqand davlat tibbiyot universitetining ko‘p tarmoqli klinikasi oliy ta’lim muassasasining asosiy o‘quv-ilmiy va davolash bazasi bo‘lib, bu yerda har yili 20 mingga yaqin bemorlar davolanadi. 400 o‘ringa mo‘ljallangan tibbiy maskanda 13 ta davolash bo‘limi va 20 ta ilmiy kafedra faoliyat ko‘rsatayotir. Tibbiy markaz bemorlarga yuqori texnologiyali, sifatli tekshirish hamda davolash xizmatlarini ko‘rsatishda nafaqat Samarqand, balki Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy viloyatlari uchun ham hududiy markaz hisoblanadi.*



## Dil so‘zi

Klinikada davolash ishlarining samaradorligi uning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi bilan chambarchas bog‘liq, albatta. Shu bois oxirgi besh-olti yil ichida bu yo‘nalishda keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, klinika so‘nggi rusumdagi raqamli tibbiy apparaturalar bilan jihozlandi. Natijada o‘ta murakkab diagnostika usullarini o‘tkazish imkoniyati yaratilib, yuqori texnologiyali operatsiyalar muvaffaqiyatli bajarilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan tibbiyotga berilayotgan katta e’tibor sohada misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarga olib keldi. Ilgari bemorlarimiz tana a’zolarini ko‘chirib o‘tkazish uchun xorij davlatlariga mashaqqat bilan borib kelishgan bo‘lsa, bugungi kunda bunga ehtiyoj yo‘q, operatsiya uchun nafaqat poytaxt, balki viloyatlarimizda ham barcha sharoit yaratilyapti.

Klinika qoshida yuqori texnologiyali operatsiyalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan qiymati 64 mlrd. so‘mga teng bo‘lgan 200 o‘rinli, 5 qavatli, zamon talablariga mos yangi xirurgiya markazining qurilishi yakunlanish arafasida. U ishga tushirilgach har biri 35 o‘ringa mo‘ljallangan zamonaviy jarrohlik amaliyotlari bajariladigan bo‘limlar hamda xirurgik jonlantirish bo‘limi xalqimiz sog‘lig‘ini tiklash uchun xizmat qila boshlaydi. Bu bilan xorijiy klinikalarda o‘tkaziladigan murakkab jarrohlik amaliyotlarini shu yerning o‘zida bajarish imkoniyati yaratiladi. Masalan, kelgusida jigar ko‘chirib o‘tkazish operatsiyalarini amalga oshirishni yiliga 50 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Klinikamizda xalqaro aloqalar ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, so‘nggi 5-6 yil davomida Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya, Rossiya davlatlarining malakali mutaxassislari bilan hamkorlikda turli murakkab jarrohlik amaliyotlari o‘tkazib kelinmoqda.

Tizimda olib borilayotgan keng ko‘lamdagi yangiliklar, xalqaro aloqalar shifokorlarning ilmiy salohiyatini oshirish imkonini beryapti. Bu bilan bemorlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati har jihatdan oshib borayotir.

Yurtimizda shifokorlarning mashaqqatli mehnati ulug‘lanib, tobora qadr topib boryapti. Bu bizlarni yangi maqsadlar sari yanada ilhomlantirmoqda.

Quvonarlisi, Vatanimiz mustaqilligining 32 yillik bayrami arafasida Prezidentimiz Farmoniga ko‘ra, davlatimizning yuksak mukofoti — II darajali “Salomatlik” ordeni bilan taqdirlandim. Bu oldimizga qo‘yilgan vazifalarni yuqori darajada bajarish va tibbiyotni xalqimizga yanada yaqinlashtirib, aholini rozi qilish yo‘lida katta mas’uliyat yuklaydi.

**Nargiza ABDULLAYEVA,**
**Samarqand davlat tibbiyot universitetining davolash ishlari bo‘yicha prorektori — ko‘p tarmoqli klinikasi bosh shifokori.**

## Intilish

# MILLIY MAHSULOTLAR EKSPORT QILINMOQDA

*Izboskan tumanidagi “And gold” MCHJda yilning shu davriga qadar 5400 tonna mahsulot ishlab chiqarishga erishildi. E’tiborlisi, ular to‘liq eksport qilinmoqda.*

— Korxonamizda paxta xom-ashyosidan kalava ip tayyorlash, to‘qilgan matodan bolalar, ayollar hamda erkaklar uchun kiyim-kechak ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan, — deydi korxona rahbari Farhodbek Toshmatov. — Mahsulotlarimiz 5 ta davlatga eksportga chiqarilmoqda. Hozirda jamoamizda ming nafar ishchi mehnat qilyapti. Tez kunlarda Asaka tumanida qiymati 10 mln. dollar bo‘lgan yangi loyihani ishga tushiramiz. Natijada ishchilar soni va mahsulot hajmini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Andijon viloyatida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan e’tibor har doimgidanda ortgan. Bu esa yilning o‘tgan davri mobaynida 2378 ta yangi subyektning tashkil etilishiga sabab bo‘ldi.

**Saminjon HUSANOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# MODERNIZATSIYA, INNOVATSIYA VA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR SHAROFATI

*Qashqadaryo O‘zbekistonning neft-gaz zaxiralariga boy hududi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham “Qashqadaryo — O‘zbekiston tarixida juda katta salmog‘i bor viloyat” deya bejiz ta’kidlamagan edi.*

## Sanoat korxonalarida

Har gal Prezidentimizning mana shu so‘zlarini eslaganimda, shu yurtning farzandi ekanligimdan, neft va gaz sohasida mehnat qilayotganimdan behad faxrlanaman. Voha konchilari mamlakat energetika mustaqilligini ta’minlashga ulkan hissa qo‘shib kelmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda vohaga katta-katta yirik investitsiya loyihalari kirib keldi, ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi.

Deylik, Qashqadaryoda cho‘l o‘rtasida bunyod etilgan va eng toza yoqilg‘i ishlab chiqaruvchi “Uzbekiston GTL” korxonasining ishga tushirilgani, mavjud yirik korxonalarning modernizatsiya qilinayotgani, yangi mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlanayotgani buning yaqqol isboti, desak, sira mubolag‘a emas.

Bugungi kunda neft va gaz qazib chiqarishda, geologiya, burg‘ilash va qayta ishlash yo‘nalishlarida mavjud qurilma va uskunalarni modernizatsiyalash, rekonstruksiya va transformatsiya qilish ishlari ilmiy asoslarda amalga oshirilmoqda. Bilasiz, ilmga asoslangan har bir sohaning kelajagi porloq bo‘ladi. Neft va gaz konlaridagi har bir quduq nazoratga olinib, quduqdan to iste’molchigacha bo‘lgan jarayonni elektron tizimga o‘tkazish bo‘yicha izchil ish olib borilmoqda. Umuman, butun tizimni raqamlashtirish boshlandi.

Geologiya yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar ham o‘zining natijalarini beryapti. Yangi neft-gaz strukturalari aniqlanmoqda.

### Yangi loyihalar mamlakat istiqboliga xizmat qiladi

Muborak gazni qayta ishlash zavodi o‘z yo‘nalishida yurtimizdagi eng yirik korxona. Zavod mamlakat xalq xo‘jaligi hamda aholini tabiiy gaz va suyuq uglevodorodlar bilan bir maromda uzluksiz ta’minlashga ixtisoslashtirilgan. Bu yerda ishlab chiqarish bilan bog‘liq 39 ta asosiy va 41 ta yordamchi, jami 80 ta obyekt faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, 7 ta ishlab chiqarish sexida gazni qayta tozalovchi 16 ta, oltingugurt ishlab chiqaruvchi 5 ta, past haroratli separatsiyalash bo‘yicha 7 ta, to‘yingan DEG (dietilenglikogol)ni qayta tiklovchi 2 ta, propan sovitkichli 4 ta qurilma, 5 ta siquv kompressor stansiyasi, 4 ta gazni seolit yordamida quritish, 4 ta tabiiy gazdan propan-butan aralashmasini ajratib olish vositalari ishlamoqda.

Korxonada 2017 — 2022-yillar davomida 118 mlrd. kub metr tabiiy gaz qayta ishlanib, iste’molchilarga yetkazib berildi. 1 mln. 673 ming tonna suyultirilgan gaz qazib olinib, shundan 89 ming tonnasi eksportga jo‘natildi, 199 ming tonnasi Respublika tovar-xomashyo birjasi orqali sotildi. 11 ming 470 tonnasi tizim tarkibidagi tashkilotlarga berildi. 697 ming tonna gaz kondensati ajratib olinib, neftni qayta ishlash zavodlariga yuborildi. Tabiiy gazni tozalash jarayonida 2 mln. 283 ming tonna oltingugurt ajratib olinib, 1 mln. 830 ming tonnasi ichki bozor iste’molchilariga, 453 ming tonnasi eksportga chiqarildi.

Oxirgi besh yil mobaynida yillik quvvati 6 mlrd. metr kub bo‘lgan gaz xomashyosini tejamkor energiya asosida qayta ishlaydigan yangi uchta — 19, 20 va 21-sonli gazni oltingugurtli birikmalardan tozalash texnologik qurilmalari ishga tushirildi. Mavjud uchta texnologik qurilma modernizatsiya qilinib, yangi buster kompressor stansiyasi hamda propan-butan aralashmasini ajratib olishga ixtisoslashtirilgan yangi 4-texnologik qurilma ishga tushirildi. Natijada suyultirilgan gaz ishlab chiqarish hajmi yiliga 61,2 ming tonna va gaz kondensati ishlab chiqarish 22,5 ming tonnadan oshdi. Qo‘shimcha 83 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Zavodning 4-sonli sexidagi 16, 17 va 18-qurilmalarida ammiak reagenti o‘rniga kompressorlar orqali gazni propan yordamida sovitish loyihasi amalga oshirildi. Buning natijasida ammiak yetkazib beruvchi, yuqori elektr energiyasi sarf qiladigan 2 dona agregat to‘xtatilib, energiya sarfi 80 foizga kamaytirildi.

Zavodda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish davom etmoqda. Markaziy dispetcherlik xizmati, ya’ni texnologik jarayonlarni tezkor kuzatuv va boshqaruv tizimi hamda markaziy laboratoriyada ishlab chiqariladigan barqarorlashgan gaz kondensati, texnik oltingugurt, suyultirilgan gaz va tabiiy gaz mahsulotlarini ajratib olish jarayonlari avtomatik tarzda tahlil va tahrir qilinuvchi elektron tizimga o‘tkazildi. Hozirgi kunda raqamlashtirish bo‘yicha gazni oltingugurt birikmalaridan tozalashga mo‘ljallangan 14-sexning 19, 20 va 21-qurilmalari, nazorat-o‘lchov asboblari va texnologik jarayonlarni avtomatik boshqarish tizimiga o‘tkazish bo‘yicha modernizatsiya ishlari olib borilmoqda.

Korxonamizda o‘ta muhim loyihalardan hisoblangan “Klaus” texnologik jarayoni asosida nordon gazlardan oltingugurt



ishlab chiqarish bo‘yicha yangi 6-sonli texnologik qurilma ishga tushirilgani mamlakatimiz mustaqilligining 32 yillik bayramiga munosib tuhfa bo‘ldi. Uning afzalliklari shundan iboratki, atmosferaga tashlanadigan chiqindilarni kamaytiradi hamda oltingugurt ajratib olishda ma’nan eskirgan mavjud 5 ta qurilmani bosqichma-bosqich joriy ta’mirlash imkoniyatini yaratdi. Natijada qurilma va apparatlarning ishlash ishonchliligi oshib, ehtimoliy noxush hodisalarning oldi olinadi.

### Yangiliklar imkoniyatlar eshigini ochmoqda

Ayni paytda jamoamiz izlanishlarni davom ettirib, bir qancha istiqbolli loyihalar ustida ish olib bormoqda.

Misol uchun, korxonaning 2-sonli qozonxonasiga bug‘ turbinasini o‘rnatish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish yaqinda yo‘lga qo‘yiladi. Ilgari bug‘ faqat gazni tozalash uchun ishlatilardi. Endi undan qo‘shimcha elektr energiyasi ham olmoqchimiz. Natijada yiliga 134.4 ming MVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Qo‘shimcha 24 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

O‘zimizning ichki ehtiyojimiz uchun ishlatiladigan gazning bosimini tushirish tizimida detander-generator o‘rnatish natijasida yiliga 16,8 ming MVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi va qo‘shimcha 10 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Zavodning siquv-kompressor stansiyalarida ORS (Renkin organik sikli) texnologiyasini joriy qilish niyatidamiz. Buning samarasi o‘laroq, soatiga 12 MVt, yiliga 100,8 ming MVt/soat elektr energiyasi va qo‘shimcha 16 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Umuman, jami hisobda yiliga 252 ming MVt/soat elektr energiya ishlab chiqariladi va 50 ta ish joyi ochiladi. Ushbu loyihalarni amalga oshirishdan asosiy maqsad — korxonamiz o‘z ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan elektr energiyaga talabni to‘liq qondirib, tejab qolingani aholi iste’moli uchun yo‘naltiriladi.

Importni keskin qisqartirish va mahsulotlarni mahalliylashtirish maqsadida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti bilan hamkorlikda oltingugurt mahsulotidan rezina sanoati, yo‘l qurilishi va qishloq xo‘jaligi uchun polimer oltingugurt, oltingugurtli bitum, oltingugurtli beton, karbamidli va bentonitli oltingugurt ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Bunday raqobatbardosh mahsulotlarni ertaga emas, balki bugundan boshlab ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishimiz lozim. Chunki bu sohada katta loyihalarni bajarish uchun barcha sharoit va imkoniyatlar yetarli.

Shu o‘rinda aytishim joizki, mamlakatimiz mustaqilligining 32 yillik bayrami arafasida davlatimiz rahbarining Farmoniga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan sanoat xodimi” faxriy unvoni bilan taqdirlandim. Bu yuksak mukofot zimmamga katta mas’uliyat yuklaydi. Bor bilim va kuch-g‘ayratimni yurtimiz ravnaqi, sohamiz rivoji yo‘lida bag‘ishlab, bildirilgan ishonchni sharaf bilan oqlashga astoydil harakat qilaman.

**Shermat SHAMSIYEV,**
**Muborak gazni qayta ishlash zavodi direktori.**

# MA’NAVIYAT UMMONIDAN SAKKIZTA NOYOB MARVARID

1

Binobarin, so‘nggi yillarda Millat Sardori rahnamoligida O‘zbekiston davlati va o‘zbek xalqi hayotning turli sohalarida erishgan ulkan yutuqlarda Ibrohim G‘afurovning ham o‘ziga xos hissasi bor. Ustoz bu haqda maqtanishni istamaydi, xolos. Chunki Ibrohim aka butun hayoti mehnat ichida o‘tgan el-yurtning fidoyi bir ziyolisi, kamtarin va halol inson. Barcha ustozlari kabi milliy ma’naviyat va ma’rifat ravnaqi yo‘lida tinim bilmay izlanadi. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, “Ibrohim G‘afurov butun hayoti davomida xuddi Zahiriddin Muhammad Bobur kabi behalovat yashab, ilm-u ijod qilib kelayotgan nozikta’b so‘z zargaridir”.

Avvalambor, Ibrohim aka “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, “Milliy tiklanish” gazetalarida ishlagan kezlarida ushbu davriy nashrlarning ravon tili, maqbul sifati va yuksak saviyasidan gazetxon sifatida hamisha ko‘nglim to‘lgan. Ustoz turli nashriyotlarda xizmat qilganlarida ham kitobsevar xalqimizga yuksak saviyali adabiy-badiiy asarlar taqdim etishga intilib kelgan.

E’tiborli jihati, xuddi shu davrda ustoz nafaqat ijodiy, balki ilmiy sohada ham peshqadamlik ko‘rsatadi. Ya’ni 1973-yili “Maqsud Shayxzoda lirikasi” mavzuida Salohiddin Mamajonov rahbarligida filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiya yoqlaydi.

Kamina Ibrohim G‘afurovning ilmiy-ijodiy va badiiy muharrirlik faoliyati bilan yoshligimdan, salkam ellik yildan buyon yaxshi tanish bo‘lsam-da, o‘zaro yaqin munosabatlarimiz Oliy Majlis deputatlari sifatida 1999 — 2008-yillardagi qonun ijodkorligi jarayonlari bilan bevosita bog‘liq. Ibrohim aka bilan o‘n yildan ortiq vaqt mobaynida bitta binoda, yondosh ish kabinetlarida qonun ijodkorligi faoliyati bilan shug‘ullanganimiz menga faxr-iftixor bag‘ishlaydi.

O‘sha davrda Ibrohim aka mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarining huquqiy asoslarini mustahkamlash yo‘lida ulkan xizmat qildi. Ayniqsa, qonunlarimizning tili ravon, ifoda uslubi aniq va tushunarli bo‘lishini ta’minlashda o‘zining chuqur, qamrovdor bilimi va katta amaliy tajribasi bilan munosib hissa qo‘shdi.

Ibrohim G‘afurov nafaqat davlat arbobi, balki jamoat arbobi sifatida ham jamiyatimiz ravnaqida o‘z in’ikosini topgan ezgu xizmatlari bilan faxrlansa arziydi. Gap shundaki, Ibrohim aka “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining yetakchisi sifatida ushbu siyosiy partiyaning shakllanishi, oyoqqa turishi, yuksak huquqiy maqomga — parlament partiyasi darajasiga erishishi yo‘lida astoydil jonbozlik ko‘rsatdi.

Ibrohim akaning deputat, siyosiy yetakchi, bosh muharrir sifatida olib borgan samarali faoliyati, shubhasiz, meni doim hayron qoldirgan. Ayni chog‘da shunday tig‘iz ijtimoiy-siyosiy kun tartibiga qaramay, u kishi adabiyotshunoslik, tarjimonlik va tarjimashunoslik sohalari bilan bog‘liq qizg‘in ijodiy jarayonlardan hech qachon uzilib qolmagani, aksincha, hamisha o‘z asarlari bilan adab-u ma’rifat ummonining darg‘alaridan biri bo‘lib kelayotgani hayratimni yanada oshiradi.

## “Joziba” — birinchi jild

Ibrohim G‘afurovning “Asarlar/Adabiyot dunyosi: sakkiz jildlik to‘plami”ning birinchi jildi “Joziba” deb nomlangan. Ushbu kitobdan ustoz o‘z adabiy-tanqidiy faoliyatiga kirishgan ilk davrda — 1960 — 1970-yillarda yozilgan va nashr etilgan uch adabiy-tanqidiy risola joy olgan.

Bu o‘rinda, avvalo, Ibrohim akaning adabiyotshunos maqomidagi ilk kitobi — 1964-yilda chop etilgan “Go‘zallikning olmos qirralari” risolasi haqida so‘z bormoqda. Risolaga muallifning adabiy o‘ylar tarzida bitilgan 18 ta maqolasi jamlangan.

Muallif ayni risolasida adabiyotning jozibasi, go‘zallik qirralari nimalarda namoyon bo‘ladi, degan savollarga javob izlagan. Bu adabiy-tahliliy jarayonda goh Sadriddin Ayniy va G‘afur G‘ulom kabi o‘zbek adabiyoti namoyandalari asarlariga murojaat etsa, goh jahon adabiyoti va san’ati vakillari — rus ziyolilaridan musavvir Karl Bryullov, yozuvchi Leonid Leonov, teatr rejissyori Konstantin Stanislavskiy, jurnalist va jamoat arbobi Vladimir Korolenko, shoir va tarjimon Valeriy Bryusov, yozuvchi va pedagog Anton Makarenko, shuningdek, fransuz yozuvchilari Fransuaza Sagan va Jannina Vorms, nemis faylasufi Fridrix Nitshe asarlariga murojaat qilgan.

Keyingi risola “Joziba” deb nomlangan bo‘lib, u 1970-yilda nashr etilgan. Risolaga olimning 30 ta adabiy badiasi kiritilgan. Ushbu badialarda o‘sha davr she’riyatining muammoli nuqtalari haqida so‘z yuritilgan. Adabiyotshunos o‘z adabiy qarashlarini ilgari surar ekan, shaxs va muhit o‘rtasidagi uyg‘unlikka alohida e’tibor qaratgani juda muhim.

“Joziba” kitobidan o‘rin olgan oxirgi risola “O‘nar so‘z” 1973-yilda nashrdan chiqqan. Unda o‘zbek she’riyati, nasri va jahon adabiyotiga doir 23 ta adabiy maqola berilgan. O‘zbekiston yoshlar mukofoti bilan taqdirlangan ushbu risolada muallif so‘zlarda inson tafakkurining alangasi bo‘ladi, deya qabul qiladi va adabiyot dunyosidan mana shunday yonar so‘zni izlaydi.

## “Yurak — alanga” — ikkinchi jild

Ushbu jildda 1970 — 1980-yillarda yozilgan va nashr etilgan uchta risola jamlangan. Bu o‘rinda Ibrohim akaning “Yam-yashil daraxt”, “Yurak — alanga”, “Lirikaning yuragi” nomli adabiy-tanqidiy risolalari haqida so‘z bormoqda.

Avvalo, 1976-yili chop qilingan “Yam-yashil daraxt” risolasida munaqqid o‘sha davr o‘zbek nasrida aks etgan zamonning burilish nuqtalarini tadqiq qiladi. Bunda Oybek, Sharof Rashidov, Abdulla Qahhor, Nazir Safarov, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O‘lmas Umarbekov, Said Ahmad, Nosir Fozilov, Mashrab Boboyev kabi taniqli yozuvchilar bilan bir qatorda ilk adabiy mashqlari e’lon qilingan yosh nosirlar asarlaridagi adabiy qahramonlar dunyo yozuvchilarining mashhur asarlari obrazlari bilan qiyosan o‘rganilgani e’tiborga sazovor.

Ibrohim G‘afurovning “Yurak — alanga” kitobi dastavval 1976-yili nashr etilgan. Bu asarda, shuningdek, “Yam-yashil daraxt” va “Lirikaning yuragi” risolalarida o‘zbek she’riyatidagi Hamza, Oybek, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Zulfiya, Hamid G‘ulom, Mirtemir, Maqsud Shayxzodadan tortib, toki o‘sha davr yoshlari — Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Omon Matjon, Jamol Kamol, Halima Xudoyberdiyevagacha bo‘lgan butun adabiy avlodlar zanjirining adabiy faoliyati haqidagi tasavvur va tushunchalar to‘liq ifodalab berilgan.

Ilk bor 1982-yili nashrdan chiqqan “Lirikaning yuragi” risolasida muallif o‘sha davr yosh shoirlarini Prever, Lorka, Nozim Hikmat, Elyuar, Ritsos, Blok, Ziyedonis kabi dunyoga mashhur shoirlar bilan ijodiy bellashishga chorlaydi. Mazkur asar she’riyatni, uning tarixini — g‘oyalar va qahramonlarning o‘zgarish, o‘sish tarixi sifatida tadqiq etilishi nuqtayi nazaridan adabiy jamoatchilik e’tiborini qozongan.

## “She’riyat — izlanish demak” — uchinchi jild

XX asrning 50 — 60-yillaridagi o‘zbek she’riyatini jahon she’riyati bilan qiyosan o‘rganish asnosida Ibrohim o‘afurov ayni mavzuda kelgusida ko‘plab ilmiy-adabiy tadqiqotlar uchun keng yo‘l ochdi, deb e’tirof etadi soha mutaxassislari. “She’riyat — izlanish demak” deb nomlangan uchinchi jild ustozning xuddi shu mazmundagi ikki kitobidan iborat.

Aynan “She’riyat — izlanish demak” nomli dastlabki kitob 1984-yili nashr etilgan. Monografiya maqomidagi ushbu tadqiqotda o‘zbek lirik she’riyati va uning taraqqiyot omillari birinchi marta chuqur ilmiy tahlil qilingan va milliy she’riy tafakkur yangilanishlari atroflicha o‘rganilgan.

O‘z navbatida, uchinchi jildga “Prozaning shoiri” kitobi ham kiritilgan. Bu asar 1981-yili nashrdan chiqqan va unda Said Ahmad prozasi tadqiq etilgan. O‘zbek nasrining ushbu yirik namoyandasi ijodi namunalari Anton Chexov, Edgar Po, Stefan Sveyg, Prospyer Merime adabiy olamlari bilan qiyoslangani o‘sha davr adabiyot muxlislari va mutaxassislarini befarq qoldirmagan.

## “Dil erkinligi” — to‘rtinchi jild

Ibrohim G‘afurov o‘z ilmiy-adabiy faoliyatining o‘ttiz yilligini “O‘ttiz yil izhori” nomli kitobi bilan kutib oladi. 1987-yili nashr etilgan bu asar adabiyot muxlislari uchun mutlaqo yangi muallif dunyolarini ochib beradi. Kitobdagi adabiy o‘ylar va maqolalarda Alisher Navoiy siymosi Ibrohim akaning tadqiqotlarida alohida bir katta tarmoq hisoblanishi yorqin namoyon bo‘lgan. Muallif kitobxonni hazrat Navoiy dunyolariga sodda, tiniq, hissiy tushuntirishlar bilan olib kirishga intilgan.

Ushbu asar, olim o‘z ta’biri bilan aytganda, adabiyotshunoslikni o‘yshunoslikka yaqinlashtirdi. Natijada “Dil erkinligi”, “Hayo — xaloskor”, “Mangu latofat”, “Parivashlar majlisi”, “Oltin qoziq”, “Mehr quyoshi” nomli mansuralar, esselar, nasriy dostonlar dunyo yuzini ko‘rishiga yo‘l ochildi. Ushbu kitoblarning ayrimlarida mumtoz adabiyotimizda odamiylik va umuminsoniy qadriyatlarning aks etishi chuqur tadqiq qilingan bo‘lsa, boshqa birida adabiy avlodlarning maydonga kirib kelishi, adabiyotdan mustahkam o‘rin olishi haqida keng mushohada yuritilgan.

Xususan, Ibrohim akaning 1998-yili chop etilgan “Dil erkinligi” nomli kitobi 1991-yilgi “Iltijo” nomli ilk mansuralar kitobining izchil davomi. Undan o‘nlab hikoya, mansura, badia va adabiy maqolalar o‘rin olgan.

Darvoqe, “O‘ttiz yil izhori” va “Dil erkinligi” nomli kitoblar birgalikda Ibrohim G‘afurov sakkiz jildlik to‘plamining to‘rtinchi jildini tashkil etgan.

## “Hayo — xaloskor” — beshinchi jild

Beshinchi jilddan muallifning 2006-yili nashrdan chiqqan “Hayo — xaloskor” kitobi joy olgan. Bu asar, soha mutaxassislarining fikricha, to‘rt kitobdan iborat “Hayo — xaloskor”, “Mangu latofat”, “Parivashlar majlisi”, “Oltin qoziq” nomli mansuralar, esselar, nasriy dostonlar, adabiy suhbatlar ko‘pjildligining birinchisi sanaladi.

Kitob muallifning “Tarjimai hol chizgisi” nomli kirish so‘zi bilan boshlangani mantiqan asosli. Zero, istiqlol Ibrohim G‘afurovning hayot va ijod yo‘lidagi eng muhim yuksalish bosqichini boshlab berdi. Muallif ta’kidlaganidek, “Adabiyot bizning jamiyatimizda mustaqillik, erkinlik, millatning tiklanishi, qadriyatlarining kamol topib borishiga ko‘maklashadi. U millatning o‘z-o‘zini bilish, anglash va hissiy kamol topishida juda muhim vositadir”.

## “Mangu latofat” — oltinchi jild

Oltinchi jildga muallifning 2008-yili chop etilgan “Mangu latofat” kitobi kiritilgan. Shuni ta’kidlash joizki, Ibrohim aka “mangu latofat” deganda, insoniylikning “umurtqasi” bo‘lgan hayo va axloqni nazarda tutadi.

Kitob “Millatning billurlanishi”, “Adiblar gulshani”, “Axloqni sog‘inish. Hayo — xaloskor” mavzuidagi uchta yirik qismdan iborat. O‘nlab mansura, esse, nasriy doston va adabiy suhbatlarda millatning tug‘ilishi, shakllanishi, milliy ongning uyg‘onishiga doir kuzatishlar aks etgan. Adibning ana shu samimiy qalb izhorlari, shubhasiz, kitobxonni fikr va faoliyat dunyolariga oshno qiladi.

## “Parivashlar majlisi” — yettinchi jild

Ibrohim akaning ayni nomdagi kitobi dastlab 2013-yili nashrdan chiqqan. U ikki qismdan iborat: “Parivashlar majlisi” nomli birinchi qism mansuralardan iborat bo‘lsa, “Yor aksi” nomli ikkinchi qism badialardan tashkil topgan bo‘lib, ularda o‘zbek va jahon adabiyoti namoyandalari haqida so‘z boradi. Ushbu kitobni Ibrohim G‘afurov betakror uslubi va tafakkur mavjining o‘ziga xos ilmiy-badiiy ko‘zgusi, deyish mumkin. Shu ma’noda, yettinchi jildni “Parivashlar majlisi” nomli kitob tashkil etgani bejiz emas.

## “Oltin qoziq” — sakkizinchi jild

Sakkizinchi jild muallifning 2013-yili chop etilgan “Oltin qoziq” nomli kitobidan iborat. Unda fikrga to‘yingan mansuralar, esselar, hayot, adabiyot, kitob hamda kitobxonlik borasidagi adabiy o‘ylar, suhbatlar, o‘zbek she’riyati, nasri, jahon adabiyotiga doir adabiy maqolalar o‘z mujassamini topgan.

Ustoz Ibrohim aka “iqraa-a” ilohiy payg‘omi asosidagi “o‘qi” so‘zini koinotda insoniyatga yo‘l ko‘rsatib turguvchi “Oltin qoziq”, ya’ni Qutb yulduziga o‘xshatadi. Shu nuqtayi nazardan, muallif o‘z kitobxonlariga: “to‘g‘ri yo‘l tabiatdan, tabiatning Oltin qozig‘idan chiqadi. Avvalo, odamlar, fikrimizni to‘g‘rilab olaylik, iste’dodlar sohalarga aylansin, har bir odam bir foydali ixtisos egasi bo‘lsin, odamzodga foyda yetkazsin”, deya xitob qiladi.




## Kutilajak yana 12 ta jildning xushxabari

Sakkiz jildlik to‘plamning birinchi jildidagi so‘zboshidan ustoz qalamiga mansub yana 12 jild nashrga tayyorlanayotgani xabarini o‘qib, nihoyatda mamnun bo‘ldim. Ma’lum qilishlaricha, Ibrohim aka asarlarining 9-jildi tarjima tanqidiga oid 2008-yili chiqqan “Tarjima — aql va yurak mehnati” risolasi hamda 2017-yili nashr etilgan “Ayyub nidosi” nomli tarjima asaridan iborat bo‘ladi.

Shuningdek, 10 — 20-jildlarga Ibrohim G‘afurov tarjima asarlari hisobidan tartib beriladi. Bu o‘rinda, albatta, mohir tarjimonimizning eng qadimgi davrdan to XX asr oxirigacha yaratilgan jahon adabiyoti eng sara namunalaridan qilgan tarjimalari haqida so‘z bormoqda.

Tarjima — ma’rifat qo‘ng‘irog‘i, deydilar. Rostdan ham, tarjimaning ma’rifat tarqatish borasidagi ahamiyati beqiyosdir. Tarjima, avvalo, turli tilda so‘zlashuvchi xalqlarni yaqinlashtirishga, bir-biridan o‘rganishga, ularning do‘stligi va hamkorligiga xizmat qiladi.

Ibrohim G‘afurov jahon adabiyotining nodir asarlari — E. Xemingueyning “Chol va dengiz” qissasi hamda “Alvido, qurol” romanini, G. Markesning “Buzrukning kuzi”, J. Joysning “Uliss”, Nozim Hikmatning “Surur” romanlarini o‘zbek tiliga o‘girganini alohida qayd etish lozim. Shuningdek, Chingiz Aytmatov qalamiga mansub “Qiyomat” (“Kunda”), “Qulayotgan tog‘lar” romanlari va “Chingizxonning oq buluti” qissasi Ibrohim akaning tarjimasida milliy adabiyotimiz xazinasidan joy oldi.

Olim “Panchatantra” nomli besh dostondan iborat hind eposi va Konfutsiy hikmatlarini, F. Nitshening “Zardo‘sht tavallosi” nasriy dostonini, Sartr, Folkner, Edgar Po, V. Rasputin, A. Soljenitsin kabi jahon adabiyoti namoyandalari qalamiga mansub qissa va hikoyalarni ham maroq bilan ona tilimizga o‘girib, o‘zbek kitobxonlariga tuhfa etdi.

Olis tarix shundan dalolat beradiki, Sharq xalqlari adabiyotida badiiy mahorat darajasining yuksakligi, odatda, ijodkorning xamsachilik, ya’ni “Xamsa” yozish bilan bog‘liq dostonnavislik an’anasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi asosida baholangan. G‘arbda, xususan, nasroniylik dunyosida esa yozuvchi ijodining zabardastligini belgilashda “Besh buyuk kitob” (“Bibliya”ning dastlabki beshta kitobi misolida) tamoyilidan kelib chiqiladi.

Shu ma’noda, Fyodor Dostoyevskiy “Besh buyuk kitob” — “Jinoyat va jazo”, “Telba”, “Qimorboz” (boshqa ro‘yxatlarda — “O‘smir”), “Iblislar” va “Aka-uka Karamazovlar” romanlarini yaratgan iqtidorli muallif sifatida nafaqat rus adabiyoti, balki jahon adabiyotida o‘z yuksak o‘rni hamda mavqeiga ega yozuvchi hisoblanadi.

F. Dostoyevskiyning “Besh buyuk kitob” turkumiga kirgan mashhur romanlarining barchasi birinchi bo‘lib nemis tiliga o‘girilib, keyin Yevropaning boshqa tillariga tarjima qilingan. Ammo bu turkum Vilgelm Volfson yoki boshqa nemis tarjimonlari tomonidan ham haligacha to‘liq tarjima qilinmagan.

Bu yuksak marrani birinchi bo‘lib zabt etish fransuz tarjimoni Andre Markovichga nasib qilgan. A. Markovich o‘n yildan ko‘proq vaqt oralig‘ida — 1991 — 2002-yillarda Dostoyevskiyning “Besh buyuk kitob” turkumiga kirgan mashhur romanlarini fransuz tiliga to‘liq o‘girgan.

O‘zbekiston vakili — Ibrohim G‘afurov Fyodor Dostoyevskiy qalamiga mansub “Besh buyuk kitob” tarkibiga kirgan romanlarning barchasini to‘liq tarjima qilishga musharraf bo‘lgan dunyodagi ikkinchi solih tarjimondir.

Shu bilan birga, Ibrohim aka nafaqat mashhur adabiyotshunos, publitsist hamda tarjimon, balki yetuk va zukko tarjimashunos hamdir. Olimning 2008-yilda “Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish” o‘quv qo‘llanmasi va 2012-yilda hammualliflikda “Tarjima nazariyasi” darsligi nashr etilgan. Bu asarlar mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarining tarjimonlik fakultetlari talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv jarayonida qo‘l kelayotgani tahsinga loyiq.

Muxtasar aytganda, Ibrohim G‘afurov asarlarining qo‘limizga yetib kelgan sakkiz jildi ham, barcha adabiyotsevar muxlislar endi intiqlik bilan kutadigan yana 12 ta jild ham o‘zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, tarjima san’atiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun behad ardoqli ma’naviy-ma’rifiy tuhfadir. Zero, davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, Ibrohim aka “o‘z huzur-halovatidan kechib, bir umr odamlarga ilm-u ziyo, ma’rifat ulashib kelayotgan hassos so‘z san’atkoridir”.

**Akmal SAIDOV,**
**akademik.**

REKLAMA

## TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

### kafedralarining vakant (bo‘sh) o‘rinlariga professor-o‘qituvchilar lavozimlariga tanlov e’lon qiladi

| T/r | Kafedra nomi | Vakant o‘rinlar |
|---|---|---|
| 1 | Transport muhandisligi va logistika | assistent (transport vositalari muhandisligi mutaxassisligi bo‘yicha) |
| 2 | Yengil sanoat va oziq-ovqat texnologiyalari | katta o‘qituvchi (oziq-ovqat texnologiyalari mutaxassisligi bo‘yicha) |
| 3 | Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi | assistent (fuqaro muhofazasi fani bo‘yicha) |
| 4 | Kimyo texnologiya | assistent (kimyoviy texnologiya mutaxassisligi bo‘yicha) |
| 5 | Ijtimoiy-gumanitar fanlar | katta o‘qituvchi (iqtisodiyot fani bo‘yicha) |
| 6 | Neft-gaz va konchilik ishi | assistent (foydali qazilma konlari geologiyasi va qidiruv razvedkasi mutaxassisligi bo‘yicha) assistent (neft va gaz ishi mutaxassisligi bo‘yicha) |
| 7 | Yo‘l muhandisligi | assistent (yo‘l muhandisligi mutaxassisligi bo‘yicha) |
| 8 | Aniq va tabiiy fanlar | assistent (fizika fani bo‘yicha) |
| 9 | Avtomatlashtirish va boshqarish | assistent (texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish mutaxassisligi bo‘yicha) |

Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlar institut rektori nomiga ariza, kadrlarni hisobga olish bo‘yicha shaxsiy varaqa, pasport nusxasi, ma’lumotnoma (ob’ektivka), ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va ixtirolar mavjud bo‘lganda ularga tegishli diplomlar va attestatlar nusxalari, malaka oshirganlik to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi, 5-yillik istiqbolli “Yo‘l xaritasi”ni topshiradilar.

**ARIZALAR E’LON CHOP ETILGAN SANADAN BOSHLAB BIR OY MUDDATDA QABUL QILINADI.**

**ESLATMA:** tanlovda ishtirok etuvchilar sinov darslari o‘tadilar.
**Manzil:** Termiz shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 288-“A” uy, Termiz muhandislik-texnologiya instituti binosi, D-blok, 1-qavat, o‘quv-uslubiy bo‘lim.

**Murojaat uchun telefonlar:** 76-221-87-20, 99-421-65-07.

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 941. 33 058 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Sherqulov.
Musahhih S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko’chasi, 41. O‘zA yakuni — 22.25 Topshirildi — 23.50 1 2 3 4 5 6